

**REAL SEKTOR TARKIBIDA KICHIK BIZNES SOHASINI IQTISODIY
RIVOJLANISH TENDENSIYALARI****Quziyeva Gulnoza Rashidovna**

TDIU, “Fundamental iqtisodiyot” kafedrası assistenti

e-mail: gk19942509@gmail.com

Bozor munosabatlari asoslangan iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati asosiy iqtisodiy resurslardan biri hisoblanib, insoniy resurslarning tarkibiy qismini tashkil qiladi va kichik biznes, xususi tadbirkorlik tuzilmalari yirik ishlab chiqarishga harakatchanlik baxsh etadi.

Mamlakatning yalpi ichki mahsuloti (YaIM)da kichik biznes ulushini ko'paytirish bilan bog'liq maqsadga o'zaro bir-birini to'ldiradigan ikki yo'l bilan erishish mumkin. Bular: tashkil etilayotgan kichik korxonalar sonini keskin ko'paytirish va ishlab turgan korxonalar faoliyati samaradorligini sezilarli oshirishdan iborat. Mustaqillik yillarining ilk kunlaridan boshlab, mamlakatimizda kichik biznes sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Bu borada bir qator qonunlar, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va boshqa sohani rivojlantirishga oid bir qator me'yoriy–huquqiy hujjatlar qabul qilinib, tadbirkorlik sohasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va erkinlashtirish, milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi tarmog'ini modernizatsiyalash hamda xususi sektorni qo'llab quvvatlash va rivojlantirish kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi¹. Ushbu vazifalar respublikamizda kichik biznes sub'ektlarining turli darajalarda rivojlanish omillari va tendentsiyalarini statistik usullarda baholash, statistik ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish, iqtisodiy rivojlanish strategiyalarining ekonometrik modellarini tuzish va statistik prognozlashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik biznes sohasi bugungi kunda mamlakatimizda eng yirik mehnat bozori, millionlab odamlar uchun daromad va farovonlik manbaidir. Shu maqsadda Prezidentimiz Sh.Mirziyoev 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasida uqtirganidek, “Biz yangi ish o'rinlarini yaratadigan tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularni yelkamizga ko'tarishimiz kerak”².

O'z davrida A.Smirt tadbirkorga quyidagicha ta'rif beradi: “Tadbirkor- xo'jalik yuritish tahlikasini o'z zimmasiga oluvchi kapital egasidir”.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. //Халқ сўзи, 2020 й. 25 январь

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. //Халқ сўзи, 2020 й. 25 январь

J.B.Sey fikri bo'yicha esa, tadbirkor – bu ishlab chiqarish omillarini uyg'unlashtiradigan yoki iqtisodiy resurslarni past unumdorlik va foydalilik sohasidan yuqori foydalilik va unumdorlik sohasiga yo'naltiradigan iqtisodiy gumashtadir³.

Birinchidan, tadbirkor tovar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish omillarini birlashtiradi va “katalizator” vazifasini bajaradi. Ikkinchidan, biznesni yuritish jarayonida u qarorlar qabul qilishdek qiyin bir vazifani zimmasiga oladi. Uchinchidan, tadbirkor - tashkilotchi shaxs bo'lib, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilib yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga intiladi. To'rtinchidan, tadbirkor bu tahlikaga boruvchi insondir. U nafaqat o'z mol-mulki, vaqti, mehnati bilan, balki o'z sheriklari, hissadorlari qo'shgan mablag'lar bilan ham tahlikaga boradi⁴.

RFA akademigi L.I.Abalkin ham tadbirkorlikni faoliyatning o'ziga xos tizimi sifatida qator afzalliklarga egadir deb ta'kidlaydi. Bu afzalliklar ish yo'nalishi va usullarini tanlash erkinligi, mustaqil qarorlar qabul qilish, foyda olish, qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlik va hokazolardir. L.I.Abalkinning fikricha, yetarli rivojlangan bozor xo'jaligi tadbirkorlikni rivojlanishining negizi hisoblanadi⁵.

Professor X.P. Abulqosimov fikricha “tadbirkorlik – bu inson maqsadlarini ro'yobga chiqarish va faolligini oshirish yo'nalishlaridan biridir”⁶.

Ba'zi xorijiy davlatlarda kichik biznes sohasining mamlakat YaIMdagi ulushi har xil tebranish va o'zgaruvchanlikda turadi. Masalan, 2019 yil 1 yanvar holatiga Frantsiyada bu ko'rsatkich 62,0 %, Italiyada – 60,0 % ni, Yaponiyada – 55,0 % ni, Germaniyada – 54,0 % ni, Buyuk Britaniyada – 53,0 % ni, AQShda – 52,0 % ni, Qozog'istonda – 25,6 % ni, Rossiyada – 20,0 % ni tashkil etgan. Bunda, turli davlatlarda sub'ektlarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga taalluqliligi mezonlariga ham e'tibor berish lozim. Masalan, AQShda xodimlari soni 100 kishigacha hamda yillik aylanmasi hajmi 3 mln.dan 12 mln. AQSh dollarigacha bo'lgan sub'ektlar kichik biznes sub'ektlari hisoblanadi. Xodimlar soni 100 dan 500 kishigacha bo'lgan sub'ektlar esa o'rta biznes sub'ektlari deb yuritiladi. Shuningdek, Rossiyada kichik biznes sub'ektlariga xodimlari soni 100 kishigacha hamda yillik tushumi hajmi 400,0 mln. rublgacha bo'lgan sub'ektlar taalluqli bo'ladi⁷.

Yalpi ichki mahsulot tarkibini qarab chiqadigan bo'lsak, unda asosiy o'rinni qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va sanoat egallaydi. Respublika YaIMda sanoatning ulushi 2006 yilda 21,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda uning ulushi 26,5 foizni tashkil qilmoqda. Ammo sanoatning YaIMdagi ulushi kamayish tendentsiyasiga ega bo'lib, bu tendentsiya 2018 yilgacha saqlanib qolgan bo'lib, shu yili u o'zining eng quyi ko'rsatkich 25,6 foizga yetgan.

³ Шамхалов Ф. Роль предпринимателя в рыночной экономической системе. М.: Маркетинг. 1997. №3. с. 95

⁴ Макконелл К., Брю С. Экономикс. Принципы, проблемы и политика (1). М.: Республика, 1992, с. 38

⁵ Абалкин Л.И. Заметки о российском предпринимательстве. М.: ПрогрессАкадемия, 1994, с.12

⁶ Абдулқосимов Х.П. Шаклланаётган бозор иқтисодиётида инсон омили ва уни фаоллаштириш йўллари. Икт. фан. док. дисс. автореф. Тошкент, 2005, 27-б

⁷ www.mniapf.ru/analytics/small_business

Keyingi yillarda esa sanoatning ulushini oshishi ta'minlanib, 2020 yilda 26,5 foizga yetdi. Lekin endilikda pandemiya sharoiti ham sanoat va uning tarkibidagi kichik biznes korxonalariga ham salbiy ta'sir qilmoqda. 2020 yilga kelib kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 56,5 foizni tashkil qilib, 2005 yilga nisbatan 1,77 barobarga oshishi ta'minlangan. Mamlakatimiz hamda uning hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishini ta'minlashda yaratilayotgan me'yoriy huquqiy baza bilan bir qatorda, ajratilayotgan kreditlar ham muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. 2018 yilda kichik biznes sohasiga jalb etilgan investitsiyalar hajmi 47 225,2 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2019 yilda 86 886,8 mlrd.so'mni tashkil etdi yoki 1,83 barobarga ortdi⁸. Keyingi yillarda kichik tadbirkorlik korxonalari yashovchanligi kamayish tendentsiyasiga ega bo'lmoqda.

2020 yil 1 yanvar holatiga jami 350 mingdan ortiq kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ro'yxatdan o'tgan bo'lib, undan faoliyat olib borayotgani 321 mingtani tashkil qilgan. Yoki 29 mingtasi amalda faoliyat ko'rsatmayapti⁹.

2020 yilda respublikamiz hududlari bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining yalpi hududiy mahsulot (YaHM) dagi ulushi Jizzax viloyatida yuqori darajaga yetib, 84,1 %ga teng bo'lgan. Bu ko'rsatkich Namangan viloyatida 79,2 %ni, Surxondaryo viloyatida 78,2 %ni, Samarqand viloyatida 77,5 %ni, Buxoro viloyatida 75,7 % ni va Xorazm viloyatida 75,3 % ni tashkil qilgan. Sirdaryo, Andijon, Farg'ona viloyati, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahrida 60-73 foizlar oralig'ida bo'lgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent va Navoiy viloyatlarida bu ko'rsatkich respublika ko'rsatkichi (56,5 %)dan kam, mos ravishda 54,4 %, 52,7 % va 31,3 % ni tashkil etgan. Statistik tahlillardan ko'rishimiz mumkinki, respublikamizda kichik tadbirkorlik sub'ektlarini variatsion kengligi juda yuqori. Masalan, respublikamizda YaIMda 54-56 foiz atrofida. Jizzax viloyatida esa eng yuqori bo'lib, kichik biznes sohasining YaHMDagi ulushi 2019 yilda 84,1 foiz, Navoiy viloyatida eng kam bo'lib, 31,3 foizni tashkil etadi. Variatsion kenglik 53,0 foizni tashkil etadi¹⁰.

Kichik biznes sub'ektlarining eng yuqori yashovchanlik koeffitsienti Namangan, Buxoro, Samarqand, va Jizzax viloyatlariga to'g'ri kelmoqda. Eng past ko'rsatkichlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent va Navoiy viloyatlariga to'g'ri kelgan. Shuningdek, 2017 – 2018 yillardagiga nisbatan

2019 yilda kichik biznesning YaHMDagi ulushi barcha hududlarda kamayganini ko'rsatadi. Tadbirkorlik muhitini yanada qulaylashtirish, soliq tizimini soddalashtirish va raqobat muhitini pasaytirishi mumkin bo'lgan keraksiz imtiyozlarni bekor qilish ko'pgina kichik biznes sub'ektlarini yirik korxona sifatida faoliyat yuritishi va yirik korxonalarining faolligi oshishiga sabab bo'lgani bilan izohlashimiz mumkin. 2020 yilda tadbirkorlik muhitini yaxshilashga doir amalga oshirilgan islohotlar shu yilning o'zida respublikamizda 92874 ta yangi kichik biznes sub'ekti tashkil etilishga sabab bo'ldi.

⁸ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг 2010-2020 йиллар бўйича маълумотлари. //stat.uz

⁹ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг 2010-2020 йиллар бўйича маълумотлари. //stat.uz

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг 2010-2020 йиллар бўйича маълумотлари. //stat.uz

Respublikamizda sanoat jihatdan boshqa hududlarga nisbatan ancha taraqqiy etgan viloyatlar va hamon qishloq xo'jaligi sohasi yuqori bo'lgan hududlar (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Surxondaryo, Sirdaryo viloyatlari) bor. YaIMda sanoatning ulushi yuqori bo'lishiga qaramasdan hudud iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining o'rni ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Xususan sohaning YaIMdagi ulushi kamayish tendentsiyasiga ega bo'lishig qaramasdan hozirgi kunda ham YaIMning deyarli uchdan bir qismi qishloq xo'jaligi sohasiga to'g'ri kelmoqda.

Real sektordagi tarkibiy o'zgarishlar natijasida iqtisodiyot tarmoqlarida, respublikada xom ashyo mahsulotlarini chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo'shilgan qiymatli raqobatbardosh tayyor mahsulot ishlab chiqarish zanjirini yaratish va bu mahsulotlarni eksportga yo'naltirish orqali eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushini oshirishga erishildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun bu toifadagi sub'ektlarga davlat eng avvalo tegishli shart – sharoitlar yaratishi (korruptsiya, byurokratizmga qarshi kurash, soliq tizimini optimallashtirish, turli tazyiqlardan himoyalash va boshqalar) va ularni bevosita qo'llab – quvvatlashi (huquqiy, iqtisodiy, moliyaviy imtiyoz va preferentsiyalar berish vah.k.) taminlanganlik darajasi oshirildi.

Investitsion siyosat strategiyasining amalga oshirilishining natijasi respublikaning hududiy va sanoat rivojlanishini har tomonlama ta'minlash, shuningdek mahsulotlarning xom ashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan qiymat zanjirlarini shakllantirish, mavjudlarini mustahkamlash va yangi hududlararo va tarmoqlararo aloqalarni shakllantirish, sohalar, hududlar, davlat organlari va xususiy biznes o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Smith, Adam (1776): *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. In RH Campbell and AS Skinner, Oxford: Oxford University Press. Adam Smith 145.
2. Turgot, Anne Robert Jacques (1793): *Reflections on the formation and distribution of Wealth...* Translated from the French. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Steuart, James (1757): *An Inquiry into the Principles of Political Economy*. In *History of Economic Thought Books*.
4. *New structural economics : a framework for rethinking development* / by Justin Yifu Lin.p. cm.
5. Baumol, William J. (1967): *Macroeconomics of Unbalanced Growth: The Anatomy of Urban Crisis*. In *The American Economic Review* 57 (3), pp. 415–426. DOI: 10.2307/1812111
6. Lewis, W. Arthur (1984): *The State of Development Theory*. In *The American Economic Review* 74 (1), pp. 1–10. DOI: 10.2307/1803304
7. Kuznets, Simon (Ed.) (1959): *The comparative study of economic growth and structure: suggestions on research objectives and organization*. [New York: National Bureau of Economic Research.

8. Syrquin, Moshe (1988): Chapter 7 Patterns of structural change. In Hollis Chenery and T.N. Srinivasan (Ed.): Handbook of Development Economics, Volume 1: Elsevier, pp. 203–273. Available online at <http://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1573447188010101>
9. Chenery, Hollis B. (1960): Patterns of Industrial Growth. In The American Economic Review 50 (4), pp. 624–654. DOI: 10.2307/1812463.
10. Rasulev A. New opportunities on economic development of Uzbekistan /A. Rasulev, S. Voronin, T. Shomurodov // Часопис економічних реформ.– 2022.– No 1(45).– С. 30 – 38
11. Sadullayevna, K. L., & Rashidovna, Q. G. (2021). Analysis of Relationship Between Trade Costs and Uzbekistans Bilateral Trade: Theories and Concepts. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 3(3), 132-140.
12. Shomurodov Tokhir Boymurod ugli, Kuziyeva Gulnoza Rashidovna “A STUDY ON THE REGIONAL LEVEL OF ECONOMIC GROWTH AND THE PRINCIPLES OF ITS CHANGE” Asian Journal of Research in Business Economics and Management ISSN: 2249-7307 Vol. 12, Issue 4, April 2022 SJIF 2022 = 8.529 A peer reviewed journal
13. SHOMURODOV, T., & HONGEN, Y. (2020). A Gravity model study on trade cost and foreign trade nexus: case of Uzbekistan and its selected partners. ECLSS Online 2020c.
14. UGLI, S. T. B., LATOFAT, K., SADULLAYEVNA, O. O. U. Q., GULNOZA, Q., & RASHIDOVNA, R. B. S. U. (2021). An empirical analysis on financial development and bilateral trade flow nexus. Journal of Contemporary Issues in Business and Government| Vol, 27(3), 107.
15. Shomurodov Tokhir Boymurod ugli. (2022). METHODOLOGY FOR DESIGNING GLOBAL VALUE CHAINS AT THE LEVEL OF ECONOMIC ENTITIES. Conferencea, 113–116. Retrieved from <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/1066>
16. Shomurodov Tokhir Boymurod ugli. (2022). REVIEW OF VALUE CHAIN CONCEPTS. Conferencea, 84–87. Retrieved from <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/1064>
17. Shomurodov Tokhir Boymurod ugli. (2022). CENTRAL ASIAN COUNTRIES AND GVC: THREATS AND WAYS TO PROMOTE ECONOMIC SECURITY DURING THE PANDEMIC. Conferencea, 88–91. Retrieved from <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/1065>
18. Расулев, Алишер Файзійович. "ECONOMICAL RETROSPECTIVE OF DEVELOPMENT OF VERTICAL SPECIALIZATION THEORY." TIME DESCRIPTION OF ECONOMIC REFORMS 2 (2021): 15-23.
19. Khushnud, Ziyodilloev, Shomurodov Tokhir, and Qingjie Zhou. "Analyzing Characteristics and Trends of Economic Growth in the Sectors of National Economy of Uzbekistan." 4th International Symposium on Business Corporation and Development in South-East and South Asia under B&R Initiative (ISBCD 2019). Atlantis Press, 2020.
20. SHOMURODOV, Tokhir, and Yang HONGEN. "A Gravity model study on trade cost and foreign trade nexus: case of Uzbekistan and its selected partners." ECLSS Online 2020c (2020).